

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z YASALISHNING TARIXIY BOSQICHLARI
(A.G'ULOMOV MISOLIDA)**

Akmal Tursunov Raxmatullayevich

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
(93) 437-37-11, akmal_tursunov_1971@mail.ru*

Andakulov Nuralem Talgatovich

18-23 APP

Abuova Oksana Abatovna

18-23 APP

So'z yasalishi ilk bosqichi umumiyl tilshunoslikka doir manbalarda «morfologik bosqich» sifatida farqlanadi. Mazkur bosqichda shakllangan morfologik an'ana, so'z yasalishiga doir izlanishlarda o'tgan asrning o'rtalariga qadar izchil davom etdi.

O'zbek tilshunosligida birinchilar qatorida so'z yasalishi asosida maxsus tadqiqot olib borgan A.G'ulomovning 50-yillarda e'lon qilgan maqolalaridan birida so'z yasalishi tadqiqining bu davridagi holatiga doir quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: «So'z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelamiz, holbuki, so'z yasalishi qanday bo'lmasin, biror usul bilan yangi so'z hosil qilishdir. Demak, u leksika - so'z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasalishi va so'z o'zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdan o'xshash, funktsional jihatdan boshqa-boshqa hodisadir: birinchisi-leksik hodisa, ikkinchisi-sintaktik hodisadir», - deb yozgan edi3.

Xususan, o'tgan asrning boshlarida Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan o'zbek tiliga doir qo'llanmada, shuningdek, A.N. Kononov va V.V.Reshetov kabi olimlar tomonidan chop ettirilgan darsliklarda ham tilshunoslik tarixida yuzaga kelgan ana shu an'ananing ta'sirini kuzatish mumkin. Biroq bu an'anani mazkur davr tilshunosligida ham yakdillik bilan qabul qilingan deb bo'lmaydi.

Xususan, ayrim ishlarda so'z yasalishining o'ziga xos qonuniyatiga ega bo'lgan hodisa ekanligi ham e'tirof etilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, A.M.Shcherbak tomonidan bildirilgan quyidagi mulohaza bunga misol bo'la oladi: «So'z turkumlarida morfologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunmaydigan, nisbiy mustaqil ichki hodisa mavjud»ligi haqidagi mulohazasi e'tiborlidir1. A.M.Shcherbakning fikricha, so'z yasalishi so'z turkumlarida ikkilamchi asoslarni vujudga keltirish bilan ajralib turadi. Ikkilamchi asos tushunchasi esa so'z yasalishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular so'z yasovchi affikslar vositasida hosil bo'ladi2. A.M.Shcherbakning bu fikri so'z yasalish hodisasi talqinida tub burilishga sabab bo'ldi deya olmasak ham, tilda so'z yasalishining alohida hodisa ekanligiga doir o'z davrining ilg'or qarashlardan biri sifatida e'tiborga loyiqdир.

So'z yasalishining leksik hodisa sifatida talqin etilishi ingliz tilshunosligida kengroq tus olganligini ko'rish mumkin. Xususan, A.I.Smirnitskiy, T.I.Arbekova kabilar tomonidan chop ettirilgan leksikologiyaga doir ishlarda so'z yasalishi boshqa leksik hodisalar bilan birgalikda

o'rganilganilgan. Albatta, fanda vujudga kelgan har qanday yangicha qarash qisqa davr ichida va bir yo'la mukammallikka ega bo'la olmaydi, o'z navbatida, tatbiq etilgan har qanday yangilikni mutlaq mukammal deb bo'lmaydi. Buning o'ziga xos dalilini so'z yasalishining goh morfologik, goh leksik hodisa sifatida talqin etilishi misolida kuzatish mumkin.

So'z yasalishi hodisasining morfologik formalardan farqli hodisa ekanligini idrok etish va ilmiy asoslash ham ko'p bosqichli, davomli izlanishlar natijasida yuzaga kelgan ana shunday xulosalardan biridir. Hozirgi kunga kelib tilshunoslar tomonidan so'z yasalishini tildagi alohida hodisalardan biri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan omillarni ham yaqin tarix bilan bog'lab bo'lmaydi. Zotan, so'z yasalishi haqidagi dasilabki nazariy qarashlar, bir tomonidan, tilning lingvofalsafiy masalalar muhokamasi bilan, ikkinchi tomonidan esa, so'z va uning morfologik strukturasini tadqiq etish borasida to'plangan tajribalar natijasida o'z ibtidosiga ega bo'la boshlagan edi.

Tilshunoslik tarixining 60- yillariga kelib, so'z yasalishini o'rganish bo'yicha to'plangan ana shu boy tajribalar tilning morfologik, fonetik fonologik, leksik-semantik va sintaktik qatlamlari bilan bog'liq qonuniyatlar asosida yanada chuqurlashtirildi. Jumladan, so'z yasalishining hozirgi maqomga ega bo'lishida umumiyl Tilshunoslikda G.O.Vinokur, N.A. Yanko-Trinskaya, A.N.Tixonov, Ye.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, I.S.Uluxanov, N.M.Shanskiy kabilalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda muhim o'rinn tutgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslida U. Tursunov, Z. Ma'rupov, A. G'ulomov A. Madraximov, B.Madaliyev, A.Hojiyev kabilarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi4.

Binobarin, aynan ana shu olimlarning sa'yharakatlari tufayli so'z strukturasida namoyon bo'ladigan yasalish hodisalari, birinchidan, forma yasalishiga daxldor xususiy belgilardan tafovutlandi, ikkinchidan, so'z yasalishining o'ziga xos struktur-semantik imkoniyatlar asosida voqelanishi uning tildagi turli sathlar bilan o'zaro uziyilikda rivojlanuvchi hodisa ekanligi haqida xulosalar yuzaga kela boshladi. Xuddi shunday holatni o'zning mukammal qiyofasiga o'tgan asrning 70-yillarida ega bo'la boshlagan koreys tili grammatikalarida ham kuzatish mumkin.

So'z yasalishi hodisasining lingvistik talqinlaridagi yana bir yo'naliш mazkur hodisaning derivatsiya termini ostida o'rganilishi orqali ko'zga tashalanadi. Mazkur termin tilshunoslikka kirib o'tgan asrning 60-yillarida chex tilshunosi Ye.Kurilovich tomonidan olib kirilgan edi. U nemis tilshunosi Slottining so'z turkumlarida semantik kategoriya va sintaktik funktsiyaning o'zaro mutanosib hamda nomutanosibligini belgilashda muhim bo'lgan omillar haqidagi fikriga munosabat bildirish maqsadida derivatsiya terminidan foydalanadi.

Darhaqiqat, buning o'ziga xos dalillarini o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin chop etilgan «Lingvistik terminlar izohli lug'at»larida ushbu terminning «affikslar yordamida yangi so'z yasalishi», «affikslar va affikslar yordamisiz so'z yasash» tarzida izohlanganligi misolida ham ko'rish mumkin Qo'shma so'zlarning yasalishi haqidagi ilmiy qarashlar ham so'z yasalishining o'ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichini taqozo etuvchi ana shu bosqichlarida ilgari surilgan g'oyalari asosida talqin etib kelindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Blumfeld L.Ko'rsatilgan manba. 241-243-betlar.
2. Ю.Н. Грамматика корейского языка. –М.,2004.-С.69.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. М. 1990. -С.468.
- 3.Qarang: Nurmonov A. Abdurauf Fitratning lingvistik faoliyati //O'zbek tilshunosligi tarixi.-Т., 2002.145-bet.
- 4 Qarang: Кононов А. Н. Грамматика узбекского языка - Т.,1948. -С.92;
- Решетов В. В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. -Т.,1961. -С.92-97.
5. Щербак А. М. Грамматика староузбекского языка. –М -Л.,1962. -С.110-120.
6. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.-Т.,2002. 194-bet.
7. Qarang: Смирницкий А. И. Лексикология английского языка.-М., 1956. -С.65-
8. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.-Т.,2002, 194-bet.
- 9.Курилович Е. Очерки по лингвистике.-М., 1962.-С.56-57.